

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ALIXASANOVA ZULFIYA FIZULIYEVNA**

**OLAM FLORISTIK MANZARASINING QIYOSIY-CHOG'ISHTIRMA  
JIHATDAN LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Philological Sciences**

**Alixasanova Zulfiya Fizuliyevna**

Olam floristik manzarasining qiyosiy-chog‘ishtirma jihatdan lingvopragmatik xususiyatlari ..... 3

**Алихасанова Зульфия Физулиевна**

Лингвопрагматические особенности флористической картины мира в сравнительно-сопоставительном аспекте ..... 23

**Alixasanova Zulfiya Fizuliyevna**

Linguopragmatic Features of the Floristic World Picture in a Comparative-contrastive aspect ..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ALIXASANOVA ZULFIYA FIZULIYEVNA**

**OLAM FLORISTIK MANZARASINING QIYOSIY-CHOG'ISHTIRMA  
JIHATDAN LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil4398 raqam bilan ro‘yxatga olingan**

Doktorlik dissertatsiyasi Guliston davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Djumanova Dilbar Rahimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Siddiqova Iroda Abduzuxurovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Bakirov Poyan Uralovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_\_” kuni soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-a uy. Tel.: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston jahon tillari universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-a uy. Tel.: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_” dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.M.Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
ped.f.d., professor

**X.B.Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**J.A.Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Tilni inson, uning ongi, tafakkuri va ma’naviy-amaliy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganish XX asr oxiri – XXI asr boshlaridan jahon tilshunosligining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Kognitiv semantika va kommunikativ pragmatika yo‘nalishida muvofiq olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikning umumiylar rivojlanish tendensiyalarini aks ettiradi. Xalqaro aloqalarning kuchayishi va madaniyatlar muloqotida xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunish zarurati til hamda madaniyat muammosiga yangi yondashuvlarni so‘nggi lingvopragmatik, lingvomadaniy, sotsiolingvistik tadqiqotlar qatorida izlashni taqozo etadi.

Jahon tilshunosligi tadqiqotlari voqelikni konsepsiyalashning kognitiv mexanizmlarini o‘rganish doirasida leksik birliklarni tahlil qilish zarurligini, xususan, ma’noning lingvomadaniy, lingvopragmatik, psixolingvistik nuqtayi nazaridan olamning floristik manzarasini, shuningdek, og‘zaki va yozma nutqda floronimlardan foydalanish xususiyatlarini aniqlash zarurligini ko‘rsatadi. Lingvopragmatik jihatdan inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bilan bog‘liq muammolar batafsil yoritilmaganligi sababli rus, o‘zbek va ozarbayjon tillarining floronimiyyasining milliy-madaniy xususiyatini aniqlash zarurati tug‘iladi.

O‘zbekiston Respublikasida olam floristik manzarasining lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganish sohasidagi tadqiqotlar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda, chunki bu madaniyatlararo muloqotning asosiy jihatlariga, milliy o‘ziga xoslik va dunyoqarashning semantik tushunchalariga ta’sir ko‘rsatadi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “bugungi kunda dunyo tez sur’atlar bilan o‘zgarib borar ekan, xalqlarning barqarorligi va barqaror rivojlanishiga har qachongidan ham ko‘proq yangi muammolar va tahdidlar paydo bo‘lmoqda, ma’rifatga, ma’naviy, axloqiy tamoyilga e’tibor qaratish, yoshlarga bilimga intilish, o‘z-o‘zini takomillashtirish zaruratini singdirish muhim ahamiyatga ega. Aynan ma’rifat va ta’lim xalqlarning gullab-yashnashi uchun kalit bo‘ladi. Aynan ma’rifat va ta’lim odamlarni yaxshilik, ezgulik va bag‘rikenglikka olib boradi. Bunday yondashuv zamon talabidir”<sup>1</sup>. Ma’lumki, yaqinda O‘zbekiston turkiyzabon davlatlar hamkorlik Kengashining teng huquqli a’zosi bo‘ldi. Bu, shubhasiz, nafaqat iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, balki turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi maqomini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “O‘zbek tilini yanada rivojlantirish va mamlakatda til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 17-apreldagi PF-213-son “Yoshlarni kasb (mutaxassislikka) va chet tillariga

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasidagi nutqi. 19.10.2016 // <https://president.uz/ru/lists/view/34> (Murojaat sanasi: 28.01.2025).

o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagи PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Dissertatsiyaning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustivor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Lingvistik pragmatika sohasidagi tadqiqotlar xalqaro xarakterga ega. Ushbu muammo xorijiy tadqiqotchilar H.P.Grice, J.Austin, T.Von. Dijk, J.Leech, J.Searle<sup>2</sup> ishlarida keng o‘rganilgan.

Lingvopragmatikani tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida o‘rganishga rus olimlari B.Yu.Norman, Yu.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, Yu.S.Stepanova, V.G.Gak<sup>3</sup> katta hissa qo‘shganlar.

Lingvopragmatikani fan sifatida o‘rganish masalalari Sh.S.Safarov, M.Hakimov, N.E.Abdullayeva, G.I.Tairova<sup>4</sup> va b. mahalliy olimlar tomonidan ham ko‘rib chiqilgan.

Til birliklarini qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida o‘rganish butun dunyo olimlarining qiziqishini uyg‘otadi, shunday qilib, U.K.Yusupov haqli ravishda ta’kidlaydi, “nazariy maqsadlar uchun tillarni qiyosiy o‘rganish taqqoslanadigan tillar tizimiga chuqurroq kirib borishga imkon beradi, taqqoslangan tillarning har biri tizimi haqidagi bilimimizni alohida kengaytiradi...”<sup>5</sup>.

O‘rganilayotgan tillarning floristik lug‘ati tadqiqiga xorijiy va mahalliy olimlarning ko‘plab lingvistik ishlari bag‘ishlangan. Rus tilining floronomilarini kognitiv, lingvokulturologik va nominativ jihatlarda o‘rganish sohasida eng muhim

<sup>2</sup> Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975; Austin J. How to do things with words? – Oxford, 1962; Van Dijk T.A. Context and Cognition: Knowledge Frames and Speech Act Comprehension // Journal of Pragmatics, 1977. 1. – P. 211-232; Leech J. Principles of Pragmatics. – London, N-Y, 1983. – 250 p.; Searle J. Speech acts. An essay in the philosophy of language. – Cambridge, 1970.

<sup>3</sup> Норман Б.Ю. Лингвистическая pragматика (на материале русского и других славянских языков): Курс лекций. – Минск, 2009. – 183 с.; Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря // Прагматика и проблемы интенсиональности. – М., 1988; Арutyunova Н.Д. Истоки, проблемы и категории pragmatiki / Н.Д.Арутюнова, Е.В.Падучева // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая pragmatika. – М., 1985. – 357 с.; Степанов Ю.С. В поисках pragmatики (Проблема субъекта) // Изв. АН СССР. Сер. лит. и яз. 1981. – № 4. Т. 40. – С. 340-355; Гак В.Г. Язык как форма самовыражения народа // Язык как средство трансляции культуры / Отв. ред. М.Б.Ешич. – М., 2000. – С. 54-68.

<sup>4</sup> Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 285 б.; Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикиаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.; Абдуллаева Н.Э. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидағи градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – 107 б.; Tairova G.I. Nutq muloqot situativ pragmatik sistema sifatida. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2013.

<sup>5</sup> Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. – С. 27.

ilmiy tadqiqotlar A.A.Xatxe, T.A.Agapkina, Ye.V.Kolosko, V.V.Kopocheva<sup>6</sup> va b. tomonidan amalga oshirilgan.

O‘zbek floronomalarini nominativ, motivologik, etimologik va etnobotanik jihatlarda o‘rganish muammolar M.Saparov, T.Nugmanov, A.G.Kurmukov, I.V.Belolipov, G.X.Nigmatova, S.Saxobiddinov, D.R.Djumanova, Z.K.Saitkulov<sup>7</sup> va b. olimlarning ishlarida o‘rganilgan.

Ozarbayjon tilidagi floronomlarning ichki shakli, so‘z yasalishi, tarkibiy-semantik va tarkibiy-funksional xususiyatlari nuqtayi nazaridan o‘rganish A.A.Kadimova, F.S.Baxshiyeva, G.E.Aliyeva, E.A.Babayeva, Z.Y.Qasimov, E.S.Quliyev, D.B.Mirzaxanova<sup>8</sup> va b. asarlarida yoritilgan.

O‘simgiliklarning nomlarini bildiruvchi leksika ingliz, rus va o‘zbek tillari materiallari asosida – M.M.Xoshimxo‘jayeva, turli tuzilmaviy tillarda – Y.N.Isayev; o‘zbek, tojik va ingliz tillarida – O.K.Dehkanova<sup>9</sup> va b. asarlarida ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash joizki, rus, o‘zbek va ozarbayjon tillari misolida olamning floristik manzarasi qiyosiy-chog‘ishtirma jihatdan hali ko‘rib chiqilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat pedagogika institutining “Doktorantlar, talabgorlar va talabalar o‘rtasida ilmiy-

<sup>6</sup> Хатхе А.А. Номинации растительного мира в когнитивном и лингвокультурологическом аспектах. Дисс. .... канд. филол. наук. – Майкоп, 2010; Агапкина Т.А. Символика деревьев в традиционной культуре славян: осина (опыт системного анализа) // Кодови словенских культуры. – Белград, 1996. – С. 7-22; Колосько Е.В. Метафорический перенос “растение – человек” в русских народных говорах. Этноботаника: растения в языке и культуре / Отв. ред. В.Б.Колосова, А.Б.Ипполитова. – СПб.: Наука, 2010. – 386 с.; Копочева В.В. Соотношение искусственной и естественной номинации (на материале названий растений). Дисс. .... канд. филол. наук. – Томск, 1985.

<sup>7</sup>Сапаров М. Туркий тилларда полиз экинлари номлари // Ўрта Осиё ва Қозогистон туркй тиллари лексикасидан тадқиқотлар (Названия дынь тюркских языков). – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 176-250; Нугманов Т. Термины бахчеводства в узбекском языке. Автореф. дисс. .... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971; Курмуков А.Г., Белолипов И.В. Дикорастущие лекарственные растения Узбекистана. – Ташкент, 2012. – 288 с.; Нигматова Г.Х. Система и художественное функционирование лексем-названий растений в узбекском языке. Автореф. дисс. .... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 21 с.; Сахобиддинов С. Ўсимликлар систематикаси. II қисм. Гулли ўсимликлар (Систематика растения. II часть. Цветущие растения). – Тошкент: Ўқитувчи, 1966; Джуманова Д.Р. Этимологический аспект флоронимов (на материале русского и узбекского языков) // XV Виноградовские чтения. – Архангельск. – Ташкент, 2019. – С. 44-48; Сайтулов З.К. Флора и фауна мира в лексико-семантической системе русского и узбекского языков // Актуальные проблемы преподавания русского языка и литературы на современном этапе. – Ташкент, 2005. – С. 47-50.

<sup>8</sup> Кадымова А.А. Исследование фитонимов в азербайджанском и русском языках (на основе словаобразовательных и фразеологических единиц). Дисс. .... канд. филол. наук. – Баку, 2018; Бахшиева Фидан Сурат-Гызы. Игра со знакобозначениями растений в русском и азербайджанском языках // Известия ВГПУ, 2015. – С. 167-171; Алиева Г. Фитонимы в ботанической терминологии (на материале русского и азербайджанского языков) // Научные труды. Нахчыванский государственный университет, 2017. – № 5 (86); Babayeva E.A. İngilis və Azərbaycan dillərində fitonimlərin struktur-semantik xüsusiyyətləri. Mag. diss. – Bakı, 2017. – 82 s.; Qasimov Z.Y. Müəsir ingilis və Azərbaycan dillərində bitki adlarının struktur-funksional təhlili. NDA. – Bakı, 2011. – 22 s.; Quliyev E.S. Azərbaycan dilində fitonimlər. Nam. Diss. avtoref. – Bakı, 1987. – 24 s.; Мирзаханова Д.Б. Фитонимическая лексика азербайджанского языка: в сравнении с другими тюркскими языками. Дисс. .... канд. филол. наук. – Махачкала, 2007. – 147 с.

<sup>9</sup>Хошимхуджаева М.М. Фитонимы в языковой картине мира (на материале английского, русского и узбекского языков). Дисс. .... PhD по филол. наукам. – Ташкент, 2018; Исаев Ю.Н. Фитонимическая картина мира в разноструктурных языках. – Чебоксары, 2016. – 413 с.; Дехканова О.К. Синхронно-типологический анализ системы паремий и фразем с компонентами слов-фитонимов в языках разного грамматического строя (на материале узбекского, таджикского и английского языков). Дисс. .... PhD по филол. наукам. – Худжанд, 2022. – 214 с.

tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** rus, o’zbek va ozarbayjon tillarida olamning floristik manzarasiga xos lingvopragmatik xususiyatlarni qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq qilishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

tadqiqot mavzusidagi ilmiy adabiyotlarni va olimlarning lingvopragmatika, lingvomadaniyatshunoslik va floronomiya muammolariga yondashuvlarini tahlil qilish;

rus, o’zbek va ozarbayjon tillari misolida olamning lisoniy, milliy va floristik manzaralarining o’zaro bog‘liqligini aniqlash;

floronimlarning derivatsion, motivatsion-nominativ xususiyatlari o’xshashliklari va farqlarini, shuningdek, ularning o’rganilayotgan tillardagi kelib chiqishi muammolarini tadqiq qilish;

ko‘rib chiqilayotgan tillar mikromatnlari va Muqaddas Kitoblarda floristik birliklarning semantik hamda milliy-madaniy o‘ziga xosligi va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida rus, o’zbek va ozarbayjon tillarida olamning lisoniy manzarasida qo‘llaniladigan floronomilar tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** rus, o’zbek va ozarbayjon tillaridagi olam floristik manzarasining lingvopragmatik xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tavsiflovchi, qiyosiy-chog‘ishtirma usullar, kross-madaniy, komponent, so‘z yasash, statistik, etimologik va semantik tahlil usullaridan foydalaniilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

rus, o’zbek va ozarbayjon tillari misolida leksik-semantik xususiyatlar hamda milliy-madaniy konnotatsiyalar yordamida namoyon bo‘ladigan olamning lisoniy, milliy va floristik manzaralar o‘rtasidagi o’zaro bog‘liqlik hamda ularning shakllanishida floronomilarning bog‘lovchi ahamiyati madaniyatlararo tahlil orqali asoslangan;

rus, o’zbek va ozarbayjon tillarida floronomilarning motivatsion-nominativ xususiyatlari universal hamda milliy o‘ziga xos jihatlarni yoritish natijasida namoyon bo‘ladigan so‘z yasalish va etimologik tahlil usullari orqali aniqlangan;

floronimik birliklarning pragmatik xususiyatlari, jumladan, ularning Muqaddas bitik matnlarida ramziy, didaktik, qiyosiy va tavsiflovchi funksiyalari qiyosiy-chog‘ishtirma hamda semantik tahlil usullari orqali isbotlangan;

madaniyatlararo tahlil usuli orqali insonni idrok etishning universal va o‘ziga xos modellari, uning ijtimoiy aloqalari hamda qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi mikromatnlarda uchraydigan floronomilarning semantik, milliy-madaniy va pragmatik xususiyatlari aniqlanib, floronomilar olamning milliy manzarasi tarkibidagi asosiy element sifatida belgilangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

olimlarning fikrlariga tayangan holda lingvopragmatika ta’riflari va uning tayanch tushunchalari tasnifi ishlab chiqilgan, uning lingvopragmatikaga oid jihatlari umumlashtirilgan va boshqa bilim sohalari bilan aloqasi taqdim etilgan;

floronimiyaning boshqa fan sohalari bilan aloqadorligi aniqlangan hamda “fitonim” va “floronim” atamalarining aniq farqlanishi amalga oshirilgan hamda asoslangan;

ko‘rib chiqilayotgan tillarda floronimlarning asosiy yasalish modellari va tendensiyalari keltirilgan;

Ilovada keltirilgan uch tildagi floronimlar va floronom tarkibli mikromatnlar lug‘ati tuzilgan;

tadqiqotning asosiy qoidalari “Olamning floristik manzarasi: lingvopragmatik jihat” monografiyasida o‘rin olgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** lingvistik tahlil metodologiyasini, tavsiflash, tasniflashning ishonchli va samarali usullarini qo‘llash, nazariy natijalar va xulosalarni amaliy joriy etish, shuningdek, olingan natijalarni tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlash bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati** o‘rganilayotgan tillardagi floristik birliklarning ko‘p qirrali tahlili va tasnifi, rus, o‘zbek va ozarbayjon tillaridagi floronomik leksikaning lingvopragmatikaga tayangan holda taqdim etilishining turli shakllarini tavsiflash, shuningdek, turli xil matnlarda OFMni taqdim etishning umumiyligi va farqli usullarini aniqlash bilan izohlanadi. Olingan natijalar lingvopragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik sohalaridagi tadqiqotlarni boyitadi.

**Ishning amaliy ahamiyati** materiallar va uning natijalaridan olyi ta’lim muassasalarida pragmalingvistika, qiyosiy tilshunoslik, chog‘ishtirma tipologiya, leksikologiya, onomastika, tarjima nazariyasi, badiiy matnning lingvistik tahlili, stilistika, shuningdek, qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarning o‘simplik dunyosi nominatsiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus kurslar va seminarlar tayyorlashda, lingvopragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, lingvomamlakatshunoslik bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar tuzishda, shuningdek, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Olamning floristik manzarasini lingvopragmatik jihatdan qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq qilish assosida:

rus, o‘zbek va ozarbayjon tillari misolida leksik-semantik xususiyatlar hamda milliy-madaniy konnotatsiyalar yordamida namoyon bo‘ladigan olamning lisoniy, milliy va floristik manzaralar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning shakllanishida floronimlarning bog‘lovchi ahamiyati madaniyatlararo tahlil orqali asoslash; lingvistik tahlil o‘tkazish, xususan, o‘rganilayotgan tillarda floronimlarning hosilaviy, motivatsion-nominativ va semantik xususiyatlarini tahlil qilish kabi jihatlari qiyoslash, chog‘ishtirish orqali o‘rganilganligiga doir ilmiy-nazariy xulosalaridan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan ITD-2021-202298754 raqamli “Bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarini uchun ko‘p tilli lingvopoetik qiyosiy-elektron platformasini yaratish” fundamental loyihasida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 05-noyabrdagi 11-05-6340/03-sod ma’lumotnomasi).

Natijada fundamental loyiha doirasida o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari uchun ko‘p tilli lingvopoetik qiyosiy-elektron platformasi resurslar bilan boyitilgan;

dissertatsiyaning rus, o‘zbek va ozarbayjon tillarida floronimlarning motivatsion-nominativ xususiyatlari universal hamda milliy o‘ziga xos jihatlarni yoritish natijasida namoyon bo‘ladigan so‘z yasalish va etimologik tahlil usullari orqali aniqlash hamda rus, o‘zbek va ozarbayjon tillari misolida leksik-semantik xususiyatlar hamda milliy-madaniy konnotatsiyalar yordamida namoyon bo‘ladigan olamning lisoniy, milliy va floristik manzaralar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikga doir ilmiy natijalar va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tomonidan 2020-2022-yillarda o‘tkazilgan “Erudit” shifrli yopiq innovatsion loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 24-dekabrdagi 10/2628-som ma’lumotnomasi). Natijada innovatsion loyiha doirasida dastur, elektron resurslar, nazariy va amaliy materiallar tayyorlash uchun samarali manba bo‘lib xizmat qilgan;

rus, o‘zbek va ozarbayjon tillarida floronimlarning motivatsion-nominativ xususiyatlari universal hamda milliy o‘ziga xos jihatlarni yoritish natijasida namoyon bo‘ladigan so‘z yasalish va etimologik tahlil usullari orqali aniqlanganligi hamda floronimk birliklarning pragmatik xususiyatlari, jumladan, ularning Muqaddas bitik matnlarida ramziy, didaktik, qiyosiy va tavsiflovchi funksiyalari qiyosiy-chog‘ishtirma hamda semantik tahlil usullari orqali isbotlanganligiga oid natija va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2025-yilda o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori ma’lumotlar bazasini yaratishda Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion grant loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 11-apreldagi 01/4-1348-som ma’lumotnomasi). Natijada taqdim etilgan xulosalar loyiha mazmun-mohiyatini boyitgan;

madaniyatlararo tahlil usuli orqali insonni idrok etishning universal va o‘ziga xos modellari, uning ijtimoiy aloqalari hamda qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi mikromatnlarda uchraydigan floronimlarning semantik, milliy-madaniy va pragmatik xususiyatlari aniqlanib, floronimlar olamning milliy manzarasi tarkibidagi asosiy element sifatida isbotlanganligi haqidagi ilmiy natija va takliflardan O‘zbekiston rus milliy madaniy markazi Sirdaryo viloyati bo‘limi tomonidan 2021-2022-yillarda 69-06/105-somli “Millatlararo totuvlik va barqarorlikni yanada rivojlantirish” amaliy grant loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston rus milliy madaniyat markazi Sirdaryo viloyati bo‘limining 2025-yil 17-yanvardagi 0125-somli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan nazariy va amaliy materiallarni tayyorlash uchun muhim manba vazifasini bajargan;

o‘zbek va ozarbayjon tillarida floronimlarning motivatsion-nominativ xususiyatlari universal hamda milliy o‘ziga xos jihatlarni yoritish natijasida

namoyon bo‘ladigan so‘z yasalish hamda etimologik tahlil usullari orqali aniqlanganligi hamda floronomik birliklarning pragmatik xususiyatlari, jumladan, ularning mikromatnlar, Muqaddas bitik matnlarida didaktik, tavsiflovchi va metaforik funksiyalari qiyosiy-chog‘ishtirma va semantik tahlil usullari asosida isbotlanganligiga doir materiallardan Ozarbayjon Respublikasi Ozarbayjon milliy fanlar akademiyasi Nasimi nomidagi Tillar instituti tomonidan 2022-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘A-21-24 raqamli “O‘zbek-ozarbayjon adabiy tili va aloqalari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida foydalanilgan (Ozarbayjon milliy fanlar akademiyasi Nasimi nomidagi Tillar institutining 2025-yil 16-apreldagi ITD-00-33-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha mazmuni o‘zbek va ozarbayjon lingvomadaniyatlariga xos kontent, matn va resurslar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari muhokama qilingan, shu jumladan, 7 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta maqola, shundan 5 ta maqola respublika va 5 ta – xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilagan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsyaning hajmi 128 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalar, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati shakllantirilgan, olingan natjalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiya, natijalar, chop etilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan, dissertatsyaning tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsyaning birinchi “**Floronimlar olamning lisoniy manzarasining ajralmas qismi sifatida**” bobida zamonaviy tilshunoslikda olamning lisoniy, milliy va floristik manzaralari muammolari hamda vazifalarini o‘rganishga asosiy yondashuvlar tahlil qilingan, “lingvopragmatika” atamasining tushunchasi ochib berilgan, olimlarning yondashuvlariga tayangan holda lingvopragmatika ta’riflarining tasnifi taklif etilgan; terminologik apparati ko‘rib chiqilgan, jihatlari umumlashtirilgan va lingvopragmatikaning boshqa bilim sohalari bilan aloqasi berilgan.

So‘nggi o‘n yilliklarda lingvopragmatika tilshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri maqomini olmoqda. 1970-yillarda H.P.Grice, J.Austin, T.A. van Dijk, J.Leech, J.Searle<sup>0</sup> g‘oyalari ta’sirida shakllangan.

<sup>0</sup> Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975; Austin J. How to do things with words? – Oxford, 1962; Van Dijk T.A. Context and Cognition: Knowledge Frames and Speech Act Comprehension. Journal of Pragmatics, 1977. 1. – P. 211-232; Leech J. Principles of Pragmatics.

Tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, lingvopragmatika tilning rasmiy tavsifidan uni ijtimoiy shartlangan kommunikativ o‘zaro ta’sir vositasi sifatida tahlil qilishga o‘tishni belgilab berdi. XX asrning 80-yillaridayoq so‘zlovchining kommunikativ intensiyasi, nutqiy aktning tuzilishi va til faoliyatining pragmatik jihatlari ilmiy diqqat markazida bo‘ldi, bu esa tilshunoslik predmetining kengayishi va lingvopragmatikaning mustaqil tadqiqot sohasi sifatida mustahkamlanishini taqozo etgan.

Lingvopragmatikaning mavjud ta’riflari bir necha guruhlarga birlashtirilgan bo‘lib, ularda asosiy jihatlar aniqlangan:

aloqa xususiyatlarini: turli omillarni (yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, kasbiy xususiyatlari) hisobga olgan holda tildan foydalanishni o‘rganish<sup>0</sup>;

belgi va foydalanuvchi munosabati: til belgisi hamda uning foydalanuvchisi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga e’tibor<sup>0</sup>;

ma’ruzachining mazmun va qabul qiluvchiga munosabati: haqiqat, xabar mazmuni va qabul qiluvchiga nisbatan til birliklarida ifodalangan munosabatlarga e’tibor qaratish<sup>0</sup>;

funksional jihat<sup>0</sup>;

lisoniy belgilarining ishlatilishi: nutqdagi belgilarning harakatlarini va ularning real aloqa vaziyatlarida qo‘llanilishini tahlil qilish<sup>0</sup>;

lisoniy birliklarining muloqot sharoitlari bilan o‘zaro ta’siri va ularning muloqot ishtirokchilariga ta’siri<sup>0</sup>;

kommunikativ jarayonlar, milliy ifoda va lisoniy o‘ziga xoslikni tahlil qilish vositasi<sup>0</sup>;

aniq vaziyatlarda muloqotning samaradorligiga e’tibor qaratgan holda nutqiy muloqotni verbal va noverbal vositalar majmuyida o‘rganish<sup>0</sup>.

Shunday qilib, lingvopragmatikani talqin qilishda inson omili, shuningdek, lingvopragmatik tadqiqotlarning funksional jihatni, ularning kontekstual shartlanganligi asosiy nuqta hisoblanadi (qiyoslang: “tildan foydalanish” fani, “kontekstdagi til” fani).

Lingvopragmatika turli yo‘nalishlar va bilim sohalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tilning muloqot va dunyoni idrok etishni shakllantirish uchun qo‘llanilishini har tomonlama tushunish hamda shu orqali inson muloqotining mohiyatini yaxshiroq anglash imkonini beradi. Tilshunoslikning til tuzilishiga qaratilgan boshqa yo‘nalishlaridan farqli o‘laroq, lingvopragmatika muloqotda

London, N-Y, 1983. – 250 p.; Searle J. Speech acts. An essay in the philosophy of language. – Cambridge, 1970.

<sup>0</sup>Норман Б.Ю. Лингвистическая прагматика (на материале русского и других славянских языков): курс лекций. – Минск, 2009. – 183 с.

<sup>0</sup>Клаус Г. Сила слова. – М.: Прогресс, 1967. – 209 с.

<sup>0</sup>Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря // Прагматика и проблемы интенсиональности. – М., 1988.

<sup>0</sup>Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. – М.: Сов. Энциклопедия, 1990. – 685 с.

<sup>0</sup>алюга Е.Н. Англоязычный профессиональный жargon в деловом дискурсе // Научный вестник Воронежского государственного архитектурно-строительного университета. Серия: Современные лингвистические и методико-дидактические исследования, 2010. – № 2 (14). – С. 11-17.

<sup>0</sup>Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2008. – Б. 76.

<sup>0</sup>Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикиаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 151.

<sup>0</sup>Тоирева Г.И. Системность и информативность в узбекском речевом общении. Автореф. дисс. ... PhD по филол. наукам. – Ташкент, 2017. – С. 32.

ma'lum maqsadlarga erishish uchun til vositalaridan foydalanishni, shuningdek, turli madaniyatlar va kontekstlarda tildan foydalanishdagi farqlarni o'rganadi.


Olamning lisoniy manzarasi (OLM) lingvopragmatikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Tilshunoslar olam manzarasining tarkibi va shakllanish usullarini turlicha belgilaydilar, ammo asosiy qoida shundan iboratki, har bir til uning sohiblari voqelikni idrok etadigan olam manzarasini chizadi. OLM nafaqat kundalik muloqot vositasi, balki millatning madaniy kodini ifodalovchi til orqali shakllanadi, umuman olganda, dunyoning odamlar ongidagi mantiqiy in'ikosiga mos keladi.

OLM milliy mentalitetni tushunish, madaniyatlararo muloqot va tillarni, xususan, mikromatnlar orqali qiyosiy o'rganish uchun muhim vositadir (taqqoslang: *бела береза, да деготь черен, о‘зб.: ona va bola – gul bilan lola, ozarb.: гүлүн қәдрini бүлбүл биlар*). Umuminsoniy va milliy konseptlar rus, o'zbek va ozarbayjon madaniyatlariga xos bo'lgan floristik birliklar bilan bog'liq.

“Fitonim” va “floronim” tushunchalarini farqlash lozim: “fitonim”, bizning fikrimizcha, o'simliklarning aniq turlarini, asosan, dorivor, inson salomatligiga foydali ta'sir ko'rsatadigan o'simliklarni bildiradi, “floronim” esa umuman o'simlik dunyosini tavsiflaydi; flora birliklari moddiy dunyoning ma'lum bir sohasini aks ettiruvchi aniq belgilangan tematik-ideografik “Flora” guruhiba tegishli bo'lib, milliy OLM xususiyatlarini aks ettiruvchi ramziy, hissiy va etnomadaniy yukni o'z ichiga oladi.

Rus, o'zbek va ozarbayjon lingvomadaniyatlaridagi floristik birliklarning qiyosiy-chog'ishtirma tahlili ushbu madaniyatlarda o'simlik dunyosini idrok etish hamda ramziylashtirishning universal xususiyatlarini ham, milliy o'ziga xos xususiyatlarini ham aniqlash imkonini beradi, masalan, rus madaniyatida *береза / qayin, ромашка / moychechak* milliy ramz sifatida namoyon bo'lsa, o'zbek madaniyatida *paxta, anor*, ozarbayjon madaniyatida *anor (nar), Kavkaz ofrisi (xaribülbül)* alohida o'rinn tutadi.

Floronimlar va o'simliklarning an'anaviy bayramlar, marosimlar hamda urf-odatlardagi rolining tahlili OLM va milliy dunyoqarash o'rtasidagi chuqur aloqalarni aniqlashga imkon beradi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Lisoniy, milliy va floristik manzaralarining o'zaro bog'liqligi.**

Shunday qilib, floroniimlar o'simlik nomlarining murakkab tizimi bo'lib, olamning uchta o'zaro bog'liq manzarasiga birlashtirilgan: lingvistik, milliy va floristik. Ushbu olam manzaralarining har biri floroniimlarning til va madaniyatda qo'llanilishining o'ziga xos jihatini ochib beradi.

Ikkinch "Qardosh va qardosh bo'limgan tillardagi floroniimlarning lingvistik xususiyatlari" bobida rus, o'zbek va ozarbayjon tillaridagi floroniimlarning derivatsion hamda motivatsion-nominativ xususiyatlari va o'rganilayotgan tillardagi floristik birliklarning etimologik jihatni tahlil qilingan.

Asosiy derivatsion modellarni aniqlash uchun rus, o'zbek va ozarbayjon tillari floroniimlarining so'z yasalish tahlili floroniimlar korpusi (rus, o'zbek va ozarbayjon tillarining 250 tadan floronimi) asosida amalga oshirilgan.

Floroniimlarning tuzilish xususiyatlarga ko'ra ikkita asosiy guruhi aniqlandi: 1) bir so'zli nomlar: sodda (rus. *акация*, *алыча*, *василек*, *репей*; o'zb. *yantoq*, *bodom*, *bug'doy*; ozarb. *zeytun*, *dəfnə*, *kiüknar*, *söyüd*), qo'shma (rus. *сон-трава*, *волчаягодник*; o'zb. *dalachoy*, *dastarbosh*; ozarb. *ağkirpik*, *çobançantasi*); 2) murakkab nomlar (rus. *настущая сумка*, *львиный зев*; o'zb. *xotinak supurgi*, *qora murch*; ozarb. *at şabalıdı*, *alabəzək bənövşə*).

O'rganilayotgan tillarda floroniimlarning yasalish usullarini qiyosiy-chog'ishtirma tahlili asosida bir qator tipologik farqlar aniqlandi. Har uchala tilda ham prefiksatsiya usuli bilan yasalgan floroniimlar mavjud emas. Rus tilida suffiksatsiya (25,6 %), murakkab terminlar (18,8 %) va qo'shish usuli (6,4 %) ustunlik qiladi. Prefiksal-suffiksal usuli (4 %) va bitishuv ham (0,8 %) mavjud.

Qo'shma so'zlar o'zbek (48,8 %) va ozarbayjon (53,2 %) tillariga xos bo'lib, floroniimik birliklar orasida eng ko'p miqdorni tashkil etadi. O'zbek tilida murakkab nomlar 6,4 %ni, ozarbayjon tilida esa 13,2 %ni tashkil etadi. O'zbek va ozarbayjon tillari floroniimlari uchun suffiksal yasalishlar kam xarakterli: o'zbek tilida – 6 %, ozarbayjon tilida – 8 %.

Qo'shma floroniimlarning shakllanishi asosida, asosan, o'zbek tilida **ot+ot** (*otquloq*, *piyozgul*), **sifat+ot** (*oqquray*, *chinnigul*), **son+ot** (*beshbarg*, *mingdevona*), ozarbayjon tilida **ot+ot** (*ayipəncəsi*, *barmaqotu*), **sifat+ot** (*ağkirpik*, *sarıkök*), **ot+sifatdosh** (*dəvəqiran*, *şaxdurən*) strukturaviy modellari bo'yicha shakllangan floroniimlarning turli xususiyatlarga ko'ra nomlanish tendensiyasi yotadi.

Rus terminologiyasida, agar leksema umumiy tushunchani emas, balki turni bildirsa, sifat juda kamdan-kam hollarda postpozitiv joyni egallashi mumkin: *тимофеевка луговая*, *паслен черный*, *редька полевая*.

O'zbek va ozarbayjon tillarida murakkab nomlar komponentlarning qat'iy belgilangan tartibiga ega. Agar asliy sifat aniqlovchi bo'lib kelsa, u har doim prepozitsiyada bo'ladi: (uzb.) *dorivor gulxayri*, *qora ituzum*, *suv ayiqtovoni*, *marjon daraxti*, *oq qayin*(ozarb.) *alabəzək bənövşə*, *meşə gilası*, *qırmızı turp*;

Floroniimlarning qo'shish usuli bilan shakllanishi ma'lum qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi:

a) belgi bo'yicha: bunday murakkab so'zlarda qiyoslangan narsaning belgisi muhim rol o'ynaydi (o'zb. *qoraqayin*, *qoqio't*, *toshdaraxt*, *baxmalgul*, *tirnoqgul*,

*semizo* ‘t, *achchiqmiya*, *shirinmiya*, *sovuno* ‘t, *chinnigul*; ozarb. *ağcaqayın*, *qaratikan*, *haçaquyruq*);

b) analogiya bo‘yicha: bu yerda hayvon yoki biror narsa bilan o‘xhashlik asos sifatida olinadi (o‘zb. *karnaygul*, *piyozgul*, *otqulog*, *arslonquyruq*, *g’ozpiyoz*, *baliqko* ‘z, *ayiqtovon*, *kapalakqanot*, *mushukquyruq*, *zag* ‘*chagul*; ozarb. *itburnu*, *quşəppəyi*, *zəngçiçəyi*, *quzuqulağı*);

c) mansubligi / joylashuvi bo‘yicha (o‘zb. *cho* ‘*lyalpiz*, *tog* ‘*rayhon*, *tog* ‘*olcha*, *dalachoy*, *yerqalampir*, *yeryong* ‘*oq*, *devortagio* ‘t; ozarb. *yerkökü*, *suulduzu*, *dağkeşnişi*);

d) an’ana bo‘yicha (o‘zb. *navruzgul*, *nomozshomgul*; ozarb. *payızgülü*, *novruzgülü*);

e) funksiya bo‘yicha (o‘zb. *kungaboqar*; ozarb. *yelgovan*, *günəbaxan*).

Qo‘sish bilan hosil bo‘lgan qo‘shma floronimlarni guruhash usullaridan biri, shuningdek, o‘z tarkibida boshqa o‘simliklar bilan bog‘liq bo‘lgan postpozitiv komponentlardan foydalanadigan birliklarni tanlashdir:

o‘zbek tilida *o* ‘t, *gul* / *chechak*, *daraxt*, *barg* (*limono* ‘t, *qoqio* ‘t, *ko* ‘*ko* ‘t, *piyozgul*, *qo* ‘*qongul*, *chinnigul*, *boychechak*, *moychechak*, *toshdaraxt*, *beshbarg*, *nayzabarg*;

ozarbayjon tilida *ağac* – *daraxt*, *ot* – *o* ‘t, *gül/çiçək* – *gul/chechak*, *yarpaq* – *barg* (*dəmirağac*, *qarğıotu*, *eşşəyotu*, *çayotu*, *qızçıçəyi*, *xoruzgülü*, *dikyarpaq*, *çətiryarpaq*, *tikanyarpaq*).

Floronimlarning motivatsion-nominativ xususiyatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, rus tilida ham o‘zbek va ozarbayjon tillaridagi kabi o‘simlik nomlarining katta qismi turdosh otlar bilan, kichik qismi atoqli otlar bilan ifodalanadi, bunda turdosh otlardan yasalgan floronomlar metaforik ko‘chimga asoslangan.

Rus xalq o‘simlik nomlari orasida Injil-xristian an’analari personajlari nomidan shakllanganlari ko‘p uchraydi: *адамова голова*, *христовы рёбрышки* – *адамово ребро*; *адамская ручка* – *богородицына ручка* – *божья (богова) ручка*; *егорьево копьё* – *христово копьё* – *копьё Иисуса Христа*.

O‘zbek va ozarbayjon tillarida o‘simlik nomlari kamdan-kam hollarda din bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi floronomlar etimologiyasida *hasso Muso* va *Abu Jahl tarvuzi* diniy realiyalar bilan bevosita bog‘liqlikni kuzatish mumkin: *hasso Muso* garchi Muso payg‘ambar bilan aloqa aniqlanmagan bo‘lsa ham o‘simlikning poyasi tayoq shakliga o‘xshagini tufayli shunday nomlangan; *Abu Jahl tarvuzi* Abu Jahilning hikoyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning eng yomon dushmani bo‘lganligi bu o‘simlikning zaharli xususiyatlari bilan bog‘liq; *mollabaşı* floronomi (dorivor moychechakning nomlaridan biri) ozarbayjon tilida gulxona mullaning bosh kiyimiga o‘xhashligi bilan nomlanish motivatsiyasini ko‘rsatadi.

Biz taqqoslanayotgan tillardagi o‘simlik nomlarining motivatsion talqinini aniqladik (1-jadvalga qarang).

## 1-jadval

### Rus, o‘zbek va ozarbayjon tillari floronommlarining motivatsion talqini

<b>№</b>	<b>Motivatsion talqini guruhi</b>	<b>Rus tili</b>	<b>O‘zbek tili</b>	<b>Ozarbayjon tili</b>
1.	O‘simlik – hayvon / hayvonning belgisi	аистник, медвежье ухо, зубянка, вороний глаз, куриная слепота, конский каштан, ястребинка	gultojixo‘roz, qo‘ng‘iztaroq, otquyruq, qushburnu, kapalak ko‘nmas	xoruz pipiyi gülü, qarğaotu, eşşəyotu, dəvə gözü otu, dovşanotu, kəklikotu.
2.	O‘simlik – inson / inson belgisi yoki faoliyati	vasilёк, маргаритка, пастернак, пастушья сумка, анютины глазки, бородатка, мать-и-мачеха,	girjovuz, yaltirbosh, savag‘ich, sachratqi, xotinak supurgi	çoban qarğısı, çobançantası, qızçıçayı
3.	O‘simlik – tabiat obyekti yoki hodisasi	звездовик, майник, зимолюбка	dalachoy, nomozshom gul, qo‘ng‘iroqgul	payızqülü, novruzgülü/qargülü, qarçıçayı, qışçıçayı, sabahgülü, çehçiçayı.

Rus, o‘zbek va ozarbayjon tillarining turli tuzilmaviyligiga qaramay, floronomik ma’nolarning motivatsion-nominativ tashkil etilishida ma’lum bir simmetriya kuzatiladi, bu esa xalqlarning o‘simlik dunyosi va uning kundalik-kognitiv joylashuvi haqidagi yaqin arxetipik tasavvurlarini ko‘rsatadi, bu esa, o‘z navbatida, OLMning bir qismi sifatida floristik makonning shakllanishiga ta’sir qiladi.

Rus, o‘zbek va ozarbayjon tillari floronommlarining etimologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, rus tili floristik leksikasining eng muhim qatlarni asl rus, umum slavyan va sharqiy slavyan floronommlari tashkil etadi (*береза, бук, клен, ива, лопух, череда*); o‘zlashtirilgan qadimslavyan kelib chiqishi (*виноград, бағряник, ель, пшеница*), lotin (*лаванда, акация, гладиолус, календула, эвкалипт, олеандр*); yunon (*аир, базилик, бальзамин, аронник, лотос, пион, орхидея*); turkiy til orqali rus tiliga kirgan ko‘plab floronommlar (*алча, шафран, баклажан, арбуз, кабачок, тут, кизил, финик, инжир*); arab (*жасмин, баобаб*) va boshqa g‘arb tillaridan (*абрикос, банан, киви*) iborat bo‘lib, ular ham tarixiy ildizlarni, ham madaniy xususiyatlarni aks ettiradi.

O‘zbek va ozarbayjon tillari floristik leksikasining asosini qadimgi umumturkiy nomlar (qiyoslang: o‘zb. *qayin, yaproq, tol, chechak, olma, uzum, sachratqi, o‘t, tikan, otqulog, qovoq*; ozarb. *arpa, yarpaq, ağac, gül / çiçek, ot, çinar, bugday, alma, tal, dal, adaçayı*) tashkil etadi. Ushbu tillardagi floristik nominatsiyalarning muhim qatlami milliy leksikada yuqori chastotaga ega bo‘lgan forscha (qiyoslang: o‘zb. *sabzi, sholg‘om, anjur, anor, bedapoya, kashnich, bodring, loviya, nilufar, piyoz, sebargi, tuxumak*; ozarb. *nərgiz, sünbül, kəvək, ərkebən, nəstərən, bənövşə, əşfar, qərənfil, zirə, şaftalı, şalğam*), arabcha (qiyoslang: o‘zb. *karam, baqlajon, zanjabil, za’faron, zaqqum, na’matak, sano;*


ozarb. *zəncəfil*, *sumaq*, *noxud* əzgər, *qanfer*, *zəfəran*, *xiyar*, *hünnar*, *badam*, *noxud*, *sumaq*) leksemalar bilan ifodalanadi. Ikkala tilda deyarli bir xil shaklda uchraydigan g‘arbgə mansub leksemalar (*kaktus*, *lavanda*, *jenshen*, *pomidor*, *banan*, *malina*, *smorodina*, *lavanda*, *jenshen*, *aloe*) alohida toifani tashkil etadi.

Floristik birliklar insoniyat jamiyatining tarixiy rivojlanishi davomida bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan xalqlar, davlatlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning “**Floronimlarning pragmatik imkoniyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida floronimlarning mikromatnlardagi komponent sifatida emotiv-baholovchi semantikasi va ularning Muqaddas kitoblardagi vazifalari tahlil qilingan.

Mikromatnlarda floronimlarning funksional imkoniyatlarini tahlil qilish uchun paremiyalar korpusi (230 ta rus, 210 ta o‘zbek, 200 ta ozarbayjon tilida) tuzildi. Rus tilidagi mikromatnlarida ishlatiladigan flora realiyalariga *дерево* “daraxt”, *лес* “o‘rmon”, *плод* “meva”, *хрен* “yerqalampir”, *трава* “o‘t”, *орех* “yong‘oq”, *горох* “no‘xot”, *солома* “somon”, *берёза* “qayin”, *осина* “tug‘terak”; o‘zbek mikromatnlarida eng keng tarqalgan floronimlar qatoriga *daraxt*, *bog‘*, *arpa*, *bug‘doy*, *gul*, *olma*, *somon*, *yong‘oq* *qovun*, *tarvuz*, *paxta*; ozarbayjon mikromatnlari tarkibida eng ko‘p ishlatiladigan floronimlar – *ağac* “daraxt”, *alma* “olma”, *zəfəran* “za’faron”, *qarpız* “tarvuz”, *qoz* “yong‘oq”, *noxud* “no‘xot”, *soğan* “piyoz”, *armud* “nok”, *saman* “somon”, *meşə* “o‘rmon”, *ot* “o‘t” kiradi.

Mikromatnlar tarkibidagi qiyosiy tabiatli florosemantik tuzilmalari (qarang: rus. *как огурчик*, *как осиновый лист*, *как пeneй*; o‘zb. *paxtadek*, *bir olmaning ikki pallasi(dek)*, *tikandek*; ozarb. *gül/çiçək kimi*, *qurumuş ağac kimi* va b.) nomaqbullik, nafrat, ijobjiy munosabat yoki har qanday aniq baholovchi munosabatlarning yo‘qligini aks ettiruvchi salbiy, ijobjiy yoki neytral ma’nolarga ega bo‘lishi mumkinligi aniqlangan. Rus tilida teng taqsimot kuzatiladi: ijobjiy – 35 %, neytral – 35 %, salbiy – 27,5 %. O‘zbek tilida ijobjiy baho ustunlik qiladi (45,5 %), neytral – 36,4 % va salbiy – 18,2 %. Ozarbayjon tilida ijobjiy ekspressiya eng ko‘p ifodalangan – 60 %, neytral – 12 %, salbiy – 24 %, bu floronimlar bilan bog‘liq ijobjiy assotsiatsiyalarning madaniy ustunligini ko‘rsatadi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Komparativ florosemantik tuzilmalar tavsifi (% da).**

Ishimizda o'rganilayotgan tillarda mikromatnlar tarkibidagi floronim komponentlarining: "daraxt", "meva", "o't", "gul" komponentlari kabi kichik guruhlar o'rganilgan.

Daraxt ramz sifatida o'zida uch asosni birlashtiradi: osmon, yer va suv. Mangu yashil daraxtlar abadiylik, hosildorlik va o'lmas ruh ramzidir. O'zbek va ozarbayjon madaniyatida daraxt hosildorlik ramzi bo'lib, vaqt o'tishi bilan u koinot va birlik timsoliga aylangan. Rus madaniyatida daraxt majusiylik davridan beri muhim muqaddas rol o'ynab, antropomorfik xususiyatlarga ega bo'lgan. Dunyo daraxti yoki Hayot daraxti qadimgi slavyanlarning mifologik tasavvurlarida olamning markaziy o'qi vazifasini bajarib, insonlar dunyosini xudolar va ajdodlar dunyosi bilan birlashtiradi. Daraxt ramzi borliqning barcha sohalari o'rtasidagi bog'liqlikni, uning ma'naviy va madaniy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Rus tilidagi "daraxt" komponentli mikromatnlarda insonning ifodalanishi: oila – oilaviy munosabatlar (*по себе дерево руби, по себе жену бери*), bolalar – tarbiya (*гни дерево, пока гнётся, учи дитятко, пока слушается*), inson – insonni baholash (*прямое дерево ветра не боится*), inson – do'stlik (*дерево живёт корнями, а человек друзьями*), jamiyat – inson (*и на дереве лист на лист не приходится*), inson – harakatlar (*за деревьями не видеть леса*) kabi ifoda toifalarida aks etgan.

